



XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 22-fevral

VII-5-20-11-158-K/25

Rishton tumani

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni to‘g‘risida

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni 13,16 va 27-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI

1.O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq, viloyat hokimligi tomonidan berilgan takliflar asosida 2024-2025-yillar uchun ishlab chiqilgan hamda Kadastr agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan reja-jadval ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Quyidagilar:

- O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan o‘tkazish har yilgi reja-jadval 1-ilovaga muvofiq,

- O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash ishlarini tashkil etish hamda ko‘chmas mulk obyektlariga

bo'lgan huquqlarni e'tirof etish" bo'yicha tuman komissiyasining namunaviy tarkibi 2- ilovaga muvofiq,

- Xatlov jarayoni yakunlangan mahalla fuqarolar yig'ini bo'yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy ishchi guruh tarkibi " 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash ishlarini tashkil etish hamda ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish" tuman komissiyasiga:

- ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazsin, bir vaqtning o'zida elektron axborot tizimida hisobga olish ishlarini tizimli tashkillashtirsin;

- xatlov o'tkazish, qabul qilingan qonun talablaridan samarali va to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil qilib, joylardagi ishchi komissiya a'zolarining ko'nikma va malakasini oshirsin;

- xar bir mahalla fuqarolar yig'inlari yalpi xatlovdan o'tkazish guruxlarini shakllantirish, extiyojga ko'ra mahallalararo mobil xatlov o'tkazish guruxlarini tashkillashtirib, grafik asosida hududlarga jalb qilsin;

- yuborilgan elektron yig'majildni ko'rib chiqish;

- ma'lumotlar va hujjatlarni avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish (biriktirish) vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman sektorlarida har bir mahalla kesimida yer uchastkasiga hamda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishga ko'maklashish bo'yicha jamoatchilik guruhi tarkibi tuzilsin hamda sektor rahbarlari tomonidan tasdiqlansin. Jamoatchilik guruhlari:

-yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish chog'ida aniqlangan qonun buzilishlari hollari yuzasidan vakolatli davlat organlarini xabardor qilinishini ta'minlash;

-yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bulgan xuquqlarni etirof etish asoslari va tartibi yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

-avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlarni kuzatib borish, zarur bo'lgan taqdirda, ushbu ma'lumotlar bilan tanishishda fuqarolarga ko'maklashish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimining o'rinbosari (N.Oripov), O'zbekiston mahallalar uyushmasi Rishton tumani bo'limi (X.Xojixonov), mahalla fuqarolar yig'inlari raislariga:

-tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda o'tkaziladigan xatlov ishlariga jalb etilgan mas'ul xodimlarni ko'chmas mulk obyektlariga kirish uchun sharoit yaratish, o'lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, ularning xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish;

-fuqarolar tomonidan o'lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko'rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergan holda xatlovga jalb etilgan mas'ullarga amaliy yordam ko'rsatish;

-egasi aniqlanmagan ko'chmas mulk obyektlarining egalariga oid ma'lumotlarga aniqlik kiritishga ko'maklashish;

-mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko'cha, mahalla faollarini jalb etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda, uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga qonunning mazmun mohiyatini to'g'ri tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklansin.

7. Tuman hokimining o'rinbosari (N.Oripov), Kadastr agentligi Rishton tumani bo'limi (R.Rustamov) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda o'tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari A.Dehqonov tasdiqlangan reja-jadval asosida mahalla fuqarolar yig'inlarida o'tkaziladigan xatlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ta'minlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Raxmonqulov, N.Oripov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XUSANOV
DAVRONBEK
ANVAROVICH

Xalq deputatlari Rishton tumani
Kengashining
2025-yil 22-fevraldagi
VII-5-20-11-158-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Rishton tumanida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini
hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan
o'tkazish bo'yicha mahalla kesimida reja-grafik jadvali**

| T/r | Hudud nomi | Kadastr agentligi axborot tizimlarida mavjud jami obyektlar soni | <i>Shundan</i> | | | |
|-----|--------------------------|------------------------------------------------------------------------------|----------------|--------------|---------------------------------------------------|------------------------------|
| | | | Noturar | Turar | Qurilishi tugallanmagan bino- inshootlar | Hatlov boshlash sanasi |
| | Rishton tumani | 12 412 | 1 736 | 9 913 | 763 | 08/11/2024 |
| 1 | Abdullaboyon MFY | 128 | 11 | 106 | 11 | 08/11/2024 |
| 2 | Dorilamon MFY | 227 | 4 | 222 | 1 | 13/11/2024 |
| 3 | Gumbaz MFY | 253 | 32 | 216 | 5 | 20/11/2024 |
| 4 | So'xobod MFY | 273 | 18 | 251 | 4 | 28/11/2024 |
| 5 | Cho'ng'ara MFY | 292 | 19 | 268 | 5 | 06/12/2024 |
| 6 | Farovonlik MFY | 376 | 94 | 274 | 8 | 16/12/2024 |
| 7 | Minor MFY | 372 | 128 | 241 | 3 | 26/12/2024 |
| 8 | Zarariq MFY | 432 | 47 | 374 | 11 | 10/01/2025 |
| 9 | Istiqbol MFY | 431 | 18 | 399 | 14 | 24/01/2025 |
| 10 | Ar-Roshidoni MFY | 440 | 23 | 412 | 5 | 07/02/2025 |
| 11 | Yangiyo'I MFY | 467 | 16 | 311 | 140 | 21/02/2025 |
| 12 | Pastki Buloqboshi MFY | 479 | 11 | 412 | 56 | 10/03/2025 |
| 13 | Alisher Navoiy MFY | 536 | 69 | 451 | 16 | 26/03/2025 |
| 14 | Buloqboshi MFY | 505 | 20 | 428 | 57 | 11/04/2025 |
| 15 | Xo'ja Ilg'or MFY | 499 | 11 | 439 | 49 | 29/04/2025 |
| 16 | Amirobod MFY | 535 | 27 | 505 | 3 | 15/05/2025 |
| 17 | Birlashgan MFY | 525 | 10 | 504 | 11 | 02/06/2025 |
| 18 | Polvonobod MFY | 523 | 7 | 494 | 22 | 18/06/2025 |
| 19 | To'raobod MFY | 566 | 49 | 502 | 15 | 04/07/2025 |
| 20 | Sohibkor MFY | 550 | 16 | 390 | 144 | 23/07/2025 |
| 21 | Chekjaloyir MFY | 566 | 24 | 474 | 68 | 11/08/2025 |
| 22 | Qoshqayron MFY | 589 | 16 | 509 | 64 | 28/08/2025 |
| 23 | Chinigaron MFY | 604 | 18 | 568 | 18 | 22/09/2025 |
| 24 | Anhorbo'yi MFY | 627 | 22 | 587 | 18 | 10/10/2025 |
| 25 | Navbahor MFY | 1 617 | 1 026 | 576 | 15 | 30/10/2025 |

Xalq deputatlari Rishton tumani
Kengashining
2025-yil 22-fevraldagi
VII-5-20-11-158-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash ishlarini tashkil etish hamda ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish” bo‘yicha tuman komissiyasining
NAMUNAVIY TARKIBI**

| № | F.I.SH | Ish joyi va lavozimi |
|----------|----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Oripov Нозимхўжа | Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari |
| 2 | Rustamov Rasuljon | Kadastr agentligi Rishton tumani bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari |
| 3 | O‘.Nabijonov | Tuman prokurorining yordamchisi, ishchi guruhi a‘zosi |
| 4 | Isaqov Ulug‘bek | Tuman soliq inspeksiyasi o‘rinbosari, ishchi guruhi a‘zosi |
| 5 | Ortiqov Abdumalik | Tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |
| 6 | Nishonov Doniyorjon | Tuman hokimining chegara masalalari bo‘yicha yordamchisi, ishchi guruhi a‘zosi |
| 7 | Isaqov Ikromjon | Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |
| 8 | Xojixonov Xudoyorxon | O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |
| 9 | Islomov Iqbol | Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |
| 10 | O‘rinboyev Isomiddin | O‘zbekiston Fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi raisi, ishchi guruhi a‘zosi |
| 11 | Mavlonov Qodir | Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |
| 12 | Raximov Jaloldin | Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi |

| | | |
|-----------|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| 13 | Xaydarov Axror | Tuman sektor kotiblari, ishchi guruhi a'zosi |
| 14 | Kenjayev Isroil | Tuman favqulotda vaziyatlar bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi |
| 15 | Islomjon Jo'raboyzoda | Tuman ekologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi |
| 16 | Teshaboyev O'ktam | Tuman statistika bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi |
| 17 | Dadajonov Baxtiyor | Davlat kadastrlari palatasi Rishton tumani filiali rahbari, ishchi guruh kotibi |

Xalq deputatlari Rishton tumani
Kengashining
2025-yil 22-fevraldagi
VII-5-20-11-158-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Xatlov jarayonlari yakunlangan maxallalar fuqarolar yig'ini bo'yicha
rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi
NAMUNAVIY ISHCHI GURUH TARKIBI**

| T/r | F.I.Sh | | Lavozimi |
|------------|---------------|---|-------------------------------------------------------------------|
| 1. | | | Mahalla fuqarolar yig'ini raisi |
| 2. | | | Mahalla profilaktika inspektori |
| 3. | | - | Mahalla davlat soliq inspektori |
| 4. | | - | Mahalladagi hokim yordamchisi |
| 5. | | - | Kadastr yig'ma jildlarni tayyorlash sho'basi kadastr muhandisi |
| 6. | | - | Mulkdor yoki foydalanuvchi |